


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TASDIQLAYMAN”

Osiyo texnologiyalar universiteti

rektori  **L. Raxmonov**
 **“15” 08 2024 yil**

**OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
2024–2029-YILLARGA MO‘LJALLANGAN
RIVOJLANTIRISH (STRATEGIK) REJASI**

Osiyo texnologiyalar universiteti Boshqaruv kengashining
2024-yil “15” avgustdagi №1-son qarori bilan tasdiqlangan

Qarshi — 2024

MUNDARIJA

I. KIRISH VA HUQUQIY ASOSLAR	3
II. UNIVERSITETNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI (SWOT)	4
III. MISSIYA, KELAJAK TASAVVURI (VISION) VA ASOSIY QADRIYATLAR.....	5
IV. STRATEGIK MAQSAD VA VAZIFALAR.....	6
V. ASOSIY STRATEGIK YO‘NALISHLAR BO‘YICHA YO‘L XARITASI	14
5.1. Ta’lim sifatini oshirish	14
5.2. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish	16
5.3. Xalqaro hamkorlik va akademik mobillik	18
5.4. Moddiy-texnik baza va raqamli infratuzilma	19
5.5. Inson kapitalini rivojlantirish	21
5.6. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat	23
5.7. Boshqaruv va moliyaviy barqarorlik	25
5.8. Vasiylik (boshqaruv) kengashining roli	26
VI. STRATEGIYANI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	28
VII. MOLIYALASHTIRISH MANBALARI.....	29
VIII. MONITORING, BAHOLASH VA HISOBOT TIZIMI.....	30
IX. KUTILAYOTGAN NATIJALAR VA ASOSIY KO‘RSATKICHLAR (KPI).....	31
X. YAKUNIY QOIDALAR.....	32

I. KIRISH VA HUQUQIY ASOSLAR

Mazkur rivojlantirish (strategik) rejasi Osiyo texnologiyalar universiteti (keyingi o‘rinlarda — OTU yoki universitet)ning 2024–2029-yillarda barqaror rivojlanishini ta‘minlash, ta‘lim sifati, ilmiy salohiyat va innovatsion faoliyatni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

OTUning besh yil muddatga mo‘ljallangan “Universitetni Pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri asosida rivojlantirish” strategiyasi (keyingi o‘rinlarda - Strategiya) zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta‘lim tizimini takomillashtirishning yetakchi yo‘nalishlarini belgilab beradi va uning ijtimoiy samaradorligini oshirish imkoniyatlariga zamin yaratadi.

Reja universitet missiyasini, kelajakdagi tasavvuri (vision)ni, strategik maqsadlari, vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas‘ul ijrochilarini belgilab beradi. Mazkur hujjat strategiyaning operatsion darajadagi vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Strategiyaning huquqiy va me‘yoriy asoslari:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son);
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son Qarori;
- “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi;
- BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 4 — sifatli ta‘lim);
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta‘lim sohasidagi qarorlari;
- OTU Ustavi va Boshqaruv kengashi qarorlari.

Mazkur hujjat universitet boshqaruvining barcha pog‘onalari va strukturaviy bo‘linmalari uchun majburiy ijro etilishi lozim bo‘lgan strategik vosita hisoblanadi.

Universitetni Strategik rivojlanish rejasi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda Vasiylik (Boshqaruv) kengashi tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqildi.

II. UNIVERSITETNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI (SWOT)

Strategiyani ishlab chiqish jarayonida universitetning ichki imkoniyatlari va tashqi muhit omillari SWOT-tahlil orqali baholandi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

KUCHLI TOMONLAR (S)	KUCHSIZ TOMONLAR (W)
✚ Nodavlat universitet sifatida boshqaruv va moliyaviy mustaqillik; ✚ Innovatsion va tadbirkorlik yo‘naltirilgan ta’lim modeli; ✚ Zamonaviy infratuzilma va raqamli platformalar; ✚ Hududda yetakchi pedagogik klaster mavqei; ✚ Yosh va tashabbuskor professor-o‘qituvchilar jamoasi; ✚ Xalqaro hamkorliklar (Indoneziya, Hindiston, Yevropa).	✓ Ilmiy daraja va unvonga ega xodimlar ulushi yetarli emas; ✓ Xalqaro reytinglarda mavqe past; ✓ Scopus/WoS bazasidagi nashrlar soni cheklangan; ✓ Tayanch doktorantura yo‘qligi; ✓ Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi yetarli emas; ✓ Magistratura va doktorantura yo‘nalishlari kam.
IMKONIYATLAR (O)	XAVF-XATARLAR (T)
• Davlat tomonidan nodavlat OTMlarni qo‘llab-quvvatlash siyosati; • Mintaqada kadrlarga bo‘lgan yuqori talab; • Xalqaro grantlar va sheriklik dasturlari; • Raqamli ta’lim va MOOC bozorining o‘sishi; • Dual ta’lim va ish beruvchilar bilan integratsiya; • Sun’iy intellekt va IT sohasining jadal rivoji.	❖ Kadrlar bozoridagi yuqori raqobat; ❖ Demografik o‘zgarishlar va abituriyentlar oqimi; ❖ Iqtisodiy beqarorlik va inflatsiya bosimi; ❖ Xorijiy universitetlarning O‘zbekistondagi filiallari raqobati; ❖ Ilmiy nashrlar uchun talablar oshib borishi; ❖ Texnologik eskirish xavfi.

Mazkur tahlil natijalari strategik maqsad va vazifalarni shakllantirish, shuningdek, har bir yo‘nalish bo‘yicha yo‘l xaritasini tuzishda asos qilib olindi.

III. MISSIYA, KELAJAK TASAVVURI VA ASOSIY QADRIYATLAR

3.1. Missiya.

Osiyo texnologiyalar universitetining missiyasi — raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalar talablari asosida yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatli va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash; ilm-fan, ta’lim, tadbirkorlik va inson kapitalini rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlashdir.

Missiyani amalga oshirish uchun universitet quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:

- fuqarolar va jamiyatning yuqori sifatli oliy ta’limga, yuksak malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish;
- fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni jahon andozalariga mos darajada amalga oshirish;
- bilim va texnologiyalarni tarqatishni rag‘batlantirish, innovatsion faoliyat uchun bozor infratuzilmasini shakllantirish;
- yuksak kasbiy mahorat, madaniyat, aql-zakovat, ijtimoiy faollik va vatanparvarlik fazilatlariga ega bo‘lgan mutaxassis shaxsini har tomonlama shakllantirish;
- aholining axborot resurslari va to‘plangan bilimlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

3.2. Kelajak tasavvuri (Vision — 2030)

2030-yilga kelib, Osiyo texnologiyalar universiteti - O‘zbekistonning yetakchi nodavlat tadbirkor universitetlaridan biri sifatida tan olingan, milliy va xalqaro reytinglarda mustahkam o‘ringa ega, raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha mintaqaviy ilmiy markazga aylangan, “3.0 tadbirkor universitet” maqomida faoliyat yurituvchi oliy ta’lim muassasasi bo‘ladi.

3.3. Asosiy qadriyatlar

- Akademik halollik va shaffoflik;
- Innovatsiyaga ochiqlik va izlanuvchanlik;
- Ijtimoiy mas’uliyat va vatanparvarlik;
- Sifat va natijaga yo‘naltirilganlik;
- Hamkorlik va jamoaviy ish;
- Talaba - markaziy figura tamoyili;
- Bag‘rikenglik va ko‘p madaniyatlilik;
- Barqaror rivojlanish (SDG) tamoyillariga sodiqlik.

IV. STRATEGIK MAQSAD VA VAZIFALAR

4.1. Bosh strategik maqsad.

Universitetning bosh strategik maqsadi — “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari doirasida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun zamonaviy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega, raqobatbardosh, oliy ma’lumotli mutaxassislar hamda ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, “3.0 tadbirkor universitet” modeliga bosqichma-bosqich o‘tishni ta’minlashdan iboratdir.

4.2. Strategik vazifalar.

Bosh maqsadga erishish uchun quyidagi 20 ta strategik vazifa belgilab olindi. Quyida ushbu vazifalarga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Tadbirkorlik yo‘nalishidagi rivojlanish strategiyasini amalga oshirish (3.0 tadbirkor universitet modeli);

Nodavlat universitet sifatida OTU innovatsion ta’lim modellari, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va tadbirkorlik tamoyillarini joriy etish erkinligiga ega. Universitetning strategik maqsadi – jamiyatga xizmat qiluvchi ta’lim, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni birlashtirgan 3.0 tadbirkor universitet maqomiga erishishdir.

2. Universitetning moddiy-texnik bazasini izchil yangilab borish;

Ta’lim jarayonini to‘liq raqamlashtirish maqsadida kompyuter va orgtexnika sotib olish uchun, Universitet kafedralaridagi mavjud laboratoriyalarga laboratoriya jihozlari xarid, o‘quv binolari va talabalar turar joylari uchun Smart TV, konditsioner, muzlatgich, avtomat kir yuvish mashinasi, suv isitish qurilmasi, elektroplita, video va fotokamera, tizimli qurilma, infokiosk, sport inventarlari, musiqiy asboblari va boshqa turdagi texnika va jihozlar sotib olish.

O‘quv auditoriyalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash maqsadida kompyuter, server, proyektor, va smart televizorlar xarid qilish;

Universitetda yagona tarmoq tamoyili asosida optik tolali media konvertor funktsionalligida o‘quv binolari va hududlariga qo‘shimcha Wi-Fi qurilmalarini o‘rnatish orqali yuqori tezlikdagi Internet bilan ta’minlash, xususan, 2030 yilgacha internet tezligini 600 Mb/sek.gacha, TAS-IX internet tarmog‘ini 1000 mb/sek gacha oshirish.

3. Ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz) va ko‘p madaniyatli muhit yaratish;

Ta’limni uchta tilda – o‘zbek, rus va ingliz tillarida olib borilishiga erishish.

4. Zamonaviy infratuzilma va kengayish strategiyasini amalga oshirish;

OTU ning zamonaviy o‘quv binolari sonini ko‘paytirish, yangi yo‘nalishlar ochish, xususan, Indoneziya, Hindoston va Yevropa mamlakatlarining nufuzli universitetlari bilan hamkorlikda qo‘shma dasturlarni tashkil etish.

5. O‘quv jarayoniga qulay ta’lim shakllarini (kunduzgi, sirtqi, masofaviy, dual) joriy qilish;

Kunduzgi, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida ta’lim olib borish. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun kadrlarni tayyorlash jarayonida o‘quv rejalariga zamonaviy fanlarni kiritib borish, innovatsion hamda ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni tatbiq qilish hamda ilg‘or xorijiy tajribani qo‘llagan holda o‘quv

jarayonini ta'limning kredit-modul tizimi asosida hamda Hemis platformasidan foydalangan holda amalga oshirish.

Masofaviy ta'lim (MOOK) ni tashkil qilish va samadorligini oshirish. Ta'lim jarayonini ish beruvchilar yoki tashkiloti va korxonalarda Dual ta'lim shaklida olib borish. To'lov-kontraktlar miqdorini kamaytirish.

6. Yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini ochish;

Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining rivojlanish istiqbollari, mehnat bozorining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib, yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini ochish. Fan dasturlarida sohaga oid innovatsion va zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, yuqori unumli hamda resurs tejaydigan ilg'or texnologiyalar bo'yicha bilimlarni aks ettirish.

2022/2023 o'quv yilidan (Universitet faoliyatini "Qarshi innovatsion ta'lim universiteti" nomi bilan boshlagan) joriy o'quv yiligacha universitetda tayyorlanayotgan 15 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda 6 ta magistratura mutaxassisliklari bilan bir qatorda, bugungi kunda talab yuqori bo'lgan, viloyatning tashkilot, korxona va ta'lim muassasalarida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot, biznes boshqaruv va huquq hamda ijtimoiy sohalarga tegishli bo'lgan qator ta'lim yo'nalishlariga yangi litsenziya olish uchun hujjat topshirish (1-jadval).

1-jadval

Bakalavriat				
1.	Yurisprudensiya	60420100	kunduzgi	kechki
2.	Davolash ishi	60910200	kunduzgi	
3.	Pediatrya ishi	60910300	kunduzgi	
4.	Stomatologiya	60910100	kunduzgi	
5.	Arxitektura	60730100	kunduzgi	kechki
6.	Qurilish muhandisligi	60730300	kunduzgi	kechki
7.	Energetika muhandisligi	60710400	kunduzgi	kechki
8.	Jismoniy madaniyat	60111200	kunduzgi	kechki
9.	Musiqa	60110600	kunduzgi	
10.	Kiberxavfsizlik	60611200	kunduzgi	kechki
11.	Maxsus pedagogika	60110300	kunduzgi	
12.	Matematika	60540100	kunduzgi	
13.	Kimyo	60530100	kunduzgi	
14.	Biologiya	60510100	kunduzgi	
Magistratura				
1.	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi	70111201	kunduzgi	
2.	Psixologiya	70310301	kunduzgi	
3.	Pedagogika	70110102	kunduzgi	
4.	Biologiya	70510101	kunduzgi	
5.	Matematika	70540101	kunduzgi	

7. Yosh va faol ilmiy-pedagogik jamoani shakllantirish;

Universitetda yosh, tashabbuskor va malakali o'qituvchilar jamoasini shakllantirish. Akademik innovatsiyalar, mahalliy va xorijiy malaka oshirish va ijodiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali doimiy rivojlanish rejasini yaratish.

8. Innovatsion va raqamli texnologiyalar ilmiy markaziga aylanish;

Jamiyat va iqtisodiyotning rivojiga hissa qo'shish maqsadida universitetni zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar va ilmiy yutuqlar markaziga aylantirish. Universitet huzurida xususiy maktab va maktabgacha ta'lim muassasasini ochish.

Universitet bilan hamkorlikda Al-Khorazmiy international school ma'muriy-boshqaruvi jarayoni, o'quv-ilmiy va tashkiliy ishlarni to'liq raqamlashtirish (yagona platformaga integratsiyalash) maqsadida server xonalarini ishga tushirish orqali Elektron hukumat tizimi talablariga muvofiq interfaol boshqaruv va ta'lim xizmatlari taqdim etish ko'rsatkichini ish faoliyatini boshlash.

Al-Khorazmiy international school pedagog xodimlarini malakasini oshirish, xalqaro ta'lim tizimi asosida ish olib borishni amaliy o'rgatish maqsadida xorijiy muassalarda malaka oshirishlarini tashkil etish.

Al-Khorazmiy international school rahbar va ishchi xodimlariga ustamalar belgilash va moddiy rag'batlantirib borish ishlarini tashkil etish.

9. Nufuzli milliy va xalqaro universitetlar qatoriga kirish (QS, THE, ARWU);

Universitetning mamlakatimizda va global miqyosda tan olinishi, yuqori sifatli ta'lim va ilmiy tadqiqotlar bilan dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari qatoriga qo'shilishga erishish. Ilmiy tadqiqot natijalarini Respublika va xalqaro ilmiy jurnallar (Scopus, Web of Science hamda Impact faktorli)da chop qilishni joriy qilish. O'quv jarayonini QS, THE va ARWO xalqaro reyting agentliklari talablari asosida tashkil etish. *“Bitta xodim-bitta xorijiy maqola”*, *“Bitta kafedra-bitta xorijiy loyiha”* aksiyasi doirasida ishlarni tashkil qilish.

Ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish uchun xorijdan professor-o'qituvchilarni taklif qilish. Shuningdek, OUT professor-o'qituvchilarini kasbiy malakasini oshirishga va stajirovka o'tash uchun maqsadli reja asosida Xorijga 1 oylik kurslarga yuborish.

Qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha AQSH, Osiyo, Rossiya va Yevropaning oliy ta'lim muassasalari bilan yangi qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.

10. Mehnat bozoriga yetakchilik qiluvchi bitiruvchilarni jamiyatga yetkazib berish;

Talabalarni bilim, amaliy ko'nikmalar va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirib, ularni mehnat bozorida raqobatbardosh va yetakchi mutaxassislar sifatida shakllantirishga qaratilgan.

11. Universitetning ilmiy salohiyatini 35%dan oshirish;

Universitetning keyingi 5 yillikda ilmiy salohiyatini oshirish bo'yicha rejasini tuzish hamda bu boradagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish. Universitetda tayanch doktorantura ochish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga takliflar berish. Professor-o'qituvchilar tarkibida ilmiy daraja va unvonlarga ega xodimlar sonini oshirish, har bir kafedra ichki imkoniyat va boshqa OTMlardan ilmiy darajalilarni jalb qilgan holda 2026-2027 o'quv yili 1 sentabr holatiga universitet ilmiy salohiyatini 35%dan oshirish.

12. Ilmiy tadqiqotlar va mintaqaviy rivojlanish integratsiyasini ta'minlash;

Universitet professor-oqituvchilari tomonidan bajariladigan ilmiy tadqiqotlarni mintaqadagi mavjud muammolar doirasida amalga oshirish. Professor-o'qituvchilar va iqtidorli talabalar bilan hududiy rivojlanishga bag'ishlangan tadqiqotlarni amalga oshirish, analitik hisobotlar tayyorlash. Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy loyihalar va grantlarda faol ishtirok etish. Universitetda mavjud bakalavriat yo'nalishlari negizida magistratura va doktorantura ochish.

13. Xalqaro va respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil qilish;

Mavjud yo'nalishlar kesimida Xalqaro va Respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar tashkil qilish va unda universitetning barcha professor-o'qituvchilari, doktoranti hamda magistrantlarni, shu jumladan iqtidorli talabalarni jalb qilish.

Universitetda "Raqamli taraqqiyot" elektron ilmiy jurnalini tashkil qilish, uni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan ro'yxatdan o'tkazish hamda OAK va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash.

14. Iqtidorli talabalar bilan ishlash tizimini yaratish;

Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish, ilmiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish, «ustoz-shogird» tizimi asosida sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislariga biriktirish va bu yo'nalishda ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish. Shuningdek, ushbu talabalar orasidan Davlat stipendiyalari (Prezident va Nomli davlat stipendiyalari)ga nomzodlar tayyorlash.

15. Ta'lim-tarbiya jarayonini Besh muhim tashabbus doirasida amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan Besh muhim tashabbus ijrosini universitetda tatbiq etish maqsadida barcha Talabalar turar joylarida tashkil etilgan o'quv xonalari va o'quv binolaridagi 5 ta muhim tashabbus xonalarini qo'shimcha inventarlar bilan boyitish. Yosh o'qituvchilar, iqtidorli talabalar hamda o'quvchilar seleksiyasini amalga oshirish va ular bilan maxsus dasturlar (besh tashabbus) asosida ishlarni tashkil qilish.

Shuningdek, universitet miqyosida Besh muhim tashabbus doirasida quyidagi ishlarni amalga oshirish uchun taklif etilayotgan loyihalar:

Birinchi tashabbus bo'yicha – yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish doirasida iqtidorli talaba-yoshlar qobiliyatini ro'yobga chiqarish hamda ularni san'at va madaniyatga qiziqishini oshirish maqsadida "Quvnoqlar va zukkolar", "Yil talabasi", "Ma'rifat maydoni", Talabalar teatr studiyalari, "Zakovat" intellektual o'yini ko'rik-tanlovlarida ishtirok etuvchi universitet jamoalari faoliyatini yanada kuchaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkaziladigan tanlovlarda faol ishtirok etish, Respublika miqyosida ushbu tanlovlarda faxrli o'rin egallagan talabalarni

moddiy ragʻbatlantirish, Talaba-yoshlar oʻrtasida konkurslar, festivallar, koʻrik-tanlovlarni tashkil etish. Talabalarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning darsdan keyingi boʻsh vaqtini band qilish maqsadida Qarshi shahridagi muzeylar, teatrlar, kinolarga ommaviy tashriflarni amalga oshirish.

Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon etishi uchun zarur sharoitlar yaratib berish:

Talaba-yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib etish, ularning sport bilan muntazam shugʻullanishlarini taʼminlash uchun sport toʻgaraklari faoliyatini yanada takomillashtirish, turli sport turlari boʻyicha musobaqalar tashkil etish va ishtirokchi talaba-yoshlar qamrovini oshirish, ular uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, doimiy ragʻbatlantirib borish.

Sport maydonchasi va zallari holatini barqaror saqlash va sport inventarlari xarid qilish, talabalar oʻrtasida oʻtkaziladigan turli sport musobaqalarida ishtirok etuvchi universitet terma jamoasi aʼzolari uchun epikirovkalar xarid qilish.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar orasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish:

Talabalar oʻrtasida «startup»–loyihalari tanlovini tashkil etish va gʻoliblarni taqdirlash;

Talabalar oʻrtasida elektron dasturlar, botlar yaratish boʻyicha tanlovlar oʻtkazish va gʻoliblarni taqdirlash.

Toʻrtinchi tashabbus – aholi, ayniqsa, yoshlar madaniyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targʻib qilish:

Talaba-yoshlar oʻrtasida kitobga muhabbatni kuchaytirish, ularda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, badiiy, maʼrifiy, ilmiy-ommabop va tarbiyaviy ahamiyatga ega yangi adabiyotlar bilan taʼminlash maqsadida institut Axborot-resurs markazi fondiga yangi adabiyotlar xarid qilish hamda universitet talaba-yoshlari oʻrtasida “Eng yaxshi kitobxon talaba”, “Eng yaxshi kitobxon guruh” koʻrik-tanlovini universitet miqyosida yuqori saviyada oʻtkazib borish.

5-tashabbus - Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlarni ish bilan taʼminlash masalalariga qaratilgan tashabbus. Asl dasturda asosiy mexanizm hududlarda yengil konstruksiyali tikuv-trikotaj korxonalarini qurish va ayollarga ish oʻrinlari yaratish boʻlib, bu korxonalarni tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish oʻrni yaratish koʻzda tutilgan edi.

Universitet sharoitida 5-tashabbus mazmunini quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha aniq amaliy tatbiq etish maqsadga muvofiq:

1. Talaba qizlarning kasbiy-karyera rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash. Universitetda "Qizlar karyera markazi" yoki shu vazifani bajaradigan tarmoqli xizmat tashkil etish kerak. Markaz vazifalari: bitiruvchi qizlarni ish beruvchilar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻlash, individual karyera maslahat berish, rezyume va sobeqlovga tayyorgarlik treninglari oʻtkazish, mintaqaviy va respublika miqyosidagi ish oʻrinlari bazasini yaratib borish. Har yili kamida ikki marta "Career Day for Women" koʻrinishidagi tadbir oʻtkazib, mahalliy va xalqaro kompaniyalarni jalb qilish samarali natija beradi.

Talaba qizlar uchun majburiy amaliyot davrlarini kengaytirish, ularni IT-kompaniyalar, banklar, ishlab chiqarish korxonalari va davlat tashkilotlariga yo'naltirishi tizimli rejalashtirilishi kerak.

2. Qisqa muddatli kasb-hunar kurslari (universitet bazasida). Universitet o'z laboratoriyalari, kompyuter sinflari va o'qituvchilar tarkibi yordamida tuman/shahar ayollari uchun bepul yoki imtiyozli kurslar tashkil etishi mumkin:

- ✓ Kompyuter savodxonligi va ofis dasturlari (MS Office, 1S, dastlabki dizayn);
- ✓ Web-dizayn, raqamli marketing, SMM (social media management) — yangi raqamli kasblar;
- ✓ Grafik dizayn, video montaj — uydan masofadan ishlash imkonini beradi;
- ✓ Buxgalteriya hisobi va soliq asoslari;
- ✓ Ingliz tili kurslari (turli darajalarda);
- ✓ Tikuvchilik-konstruksiya kurslari (5-tashabbusning bevosita tarmog'iga aloqador);
- ✓ Tadbirkorlik asoslari va biznes-rejasi tuzish.

Har bir kursni tugatgan ayolga sertifikat berilishi, kursning aniq soatlari, dastur va yakuniy malaka talablari rasmiylashtirilishi tavsiya etiladi. Bu kurslarda yiliga 200-500 ayolni qamrab olish real ko'rsatkich hisoblanadi.

3. Ayol professor-o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash. Universitet ichida ham gender muvozanati va xotin-qizlar karyerasi muhim. Konkret tadbirlar: ayol o'qituvchilar uchun ilmiy darajalar olishni rag'batlantirish (PhD, DSc bo'yicha grantlar, mentorlik), magistr va doktorantura bosqichlarida qizlar foizini ortdirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilash, universitet bog'chasi yoki bola parvarish xonasini tashkil etish (yosh onalar uchun ishlash sharoitini yaxshilash), xalqaro ilmiy konferensiyalarga ayollarni yuborish bo'yicha alohida byudjet ajratish.

4. STEM yo'nalishlariga qizlarni jalb qilish. Asian technology university texnologik yo'nalishga ixtisoslashganligi sababli bu vazifa alohida ahamiyatga ega. "Girls in Tech", "Women in AI", "Girls in Engineering" turdagi maktab o'quvchi qizlar uchun yozgi maktablar, to'garaklar, ochiq darslar tashkil etish; abituriyent qizlar uchun maxsus stipendiya dasturlari joriy etish; texnik fakultetlarda qizlar talaba ulushini har yili monitoring qilish va ortdirish.

5. Mahalliy tikuv-trikotaj korxonalari bilan hamkorlik. Universitet yaqin atrofdagi tikuv-trikotaj korxonalari bilan rasmiy shartnoma asosida hamkorlik o'rnatishi mumkin: korxona xodimlari uchun malaka oshirish kurslari (boshqaruv, sifat nazorati, eksport-import asoslari), texnologik konsalting (avtomatlashtirish, ERP-tizimlar joriy etish), korxona rahbar va menejerlari uchun MBA-mini-dasturlar, bitiruvchilarni shu korxonalarda boshqaruv lavozimlariga yo'naltirish.

6. Ilmiy-tadqiqot va analitik faoliyat. Universitet ilmiy salohiyatini xotin-qizlar bandligi muammolari bo'yicha mintaqaviy tahlilga yo'naltirish kerak. Konkret tadqiqot mavzulari: tumandagi ayollar ish bilan ta'minlanish darajasining empirik tahlili, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar, masofaviy ishlash va gig-iqtisodiyotning O'zbekiston ayollari uchun imkoniyatlari, qishloq joylarda ayollar bandligi modellari. Bu tadqiqotlar natijalari amaliy tavsiyalar tarzida tuman/viloyat hokimliklariga taqdim etilishi tashabbusning ilmiy-uslubiy tomonini mustahkamlaydi.

7. Tadbirkor ayollarni rivojlantirish. Universitet bazasida "Women's Business Incubator" tashkil etish — ayollar tomonidan tashkil etilayotgan biznes-loyihalarga maslahat, ofis joyi, mentorlik va seed-funding xizmatlarini taqdim etish. Yiliga kamida 10-20 ayol-tadbirkorni qo'llab-quvvatlash real maqsad bo'lishi mumkin. Bu yo'nalish iqtisodiy taraqqiyot vazirligi va banklar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

8. Tushuntirish-ma'rifiy ishlar va madaniy tadbirlar. Talaba qizlar va atrofdagi mahalla ayollari uchun huquqiy savodxonlik treninglari (mehnat huquqlari, oilaviy huquq, ijtimoiy himoya), sog'lom turmush tarzi, oilaviy psixologiya bo'yicha ochiq ma'ruzalar, muvaffaqiyatli ayollar bilan uchrashuvlar — bu tadbirlar tashabbusning ma'naviy-ma'rifiy o'lchamini ta'minlaydi.

Shuningdek, Universitet miqyosida Yoshlar bilan ishlash faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan tadbirlar uchun:

Universitet Kasaba uyushma qo'mitasi, Xotin-qizlar maslahat kengashi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti bilan hamkorlikda alohida iqtidor va qobiliyat egasi bo'lgan talabalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogiron, boquvchisini yo'qotgan, yetim va chin yetim talabalar ro'yxatini shakllantirib, ularga ma'naviy-moddiy ko'mak berish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

16. Ilmiy-uslubiy qo'llanmalar nashrini va rag'batlantirishni tizimga solish;

Tajribali professor-o'qituvchilar tomonidan chop etilishi rejalashtirilgan o'quv qo'llanma, darslik hamda monografiyalarning yillik rejasini shakllantirish, mualliflarga darsliklar va o'quv qo'llanmalari tayyorlash uchun sharoit yaratish, ijodiy ta'tillar berish, nashr rejasini o'z vaqtida bajargan mualliflarni rag'batlantirish. Ta'lim muassasalari uchun yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarni ekspertizadan o'tkazish uchun ekspertlar guruhini tashkil etish.

17. Universitetda zamonaviy kutubxona va elektron kutubxona tashkil qilish;

Xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, jahonning yetakchi xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari hamda xorijiy ilmiy nashrlar obunasini to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish. Universitetda elektron kutubxona yaratish.

18. Talabalar va xodimlarga moddiy va ma'naviy ko'mak ishlarini tashkil etish;

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 29 martdagi 202-sonli buyrug'i asosida universitetga birlashtirilgan mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, ushbu mahallalardagi uyushmagan yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga moddiy hamda ma'naviy ko'mak berish.

19. Yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;

"Yoshlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish"ga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini maqsadli ishlab chiqish hamda tegishli soha mutaxassislari bilan hamkorlikda universitet talaba-yoshlar o'rtasida muntazam ravishda profilaktik tadbirlar qamrovini oshirib borish.

20. Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni samarali va shaffof tashkil qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son Qarori, 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son Qarorlariga muvofiq belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda universitetda moddiy-texnik ta’minoti va o‘qitish jarayonini zamon talablari darajasiga bo‘lishini ta’minlash, professor-o‘qituvchilar, ishchi-xodimlar hamda talabalarni ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish, o‘quv binolarini ta’minlash va ularni zarur zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, talabalar turar joylarida yashash sharoiti yaxshilanishini moliyalashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

V. ASOSIY STRATEGIK YO‘NALISHLAR BO‘YICHA YO‘L XARITASI

Quyidagi bo‘limlarda har bir strategik yo‘nalish bo‘yicha maqsad, asosiy vazifalar, amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas’ul ijrochilar belgilab berilgan. Yo‘l xaritalari OTU strukturaviy bo‘linmalari uchun majburiy ijro etiluvchi hujjat hisoblanadi.

5.1. Ta’lim sifatini oshirish

Ta’lim sifatini oshirish - oliy ta’lim muassasasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, o‘quv reja va fan dasturlarini xalqaro standartlar hamda mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Ta’lim sifati – akademik jarayonning asosiy tamal toshidir va bitiruvchilarning muvaffaqiyati garovidir. Jahon bozoridagi o‘zgarishlarga moslashish uchun ta’lim sifatiga yangi talablar qo‘yilmoqda, bu esa yangi metodologik yondashuvlarni joriy qilishni talab etadi.

Professor-o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish, talabalarning mustaqil ta’limini rivojlantirish va ta’lim natijalarini baholashning shaffof mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish orqali ta’lim sifati izchil oshirib boriladi. Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan ta’lim modelini keng joriy etish ko‘zda tutiladi.

Maqsad:

Ta’lim jarayonini xalqaro standartlar va mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirish, kompetensiyaga asoslangan ta’lim modelini joriy etish orqali bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta’minlash.

Asosiy vazifalar va mexanizmlar:

- O‘quv reja va fan dasturlarini xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqish va kasbiy standartlar bilan muvofiqlashtirish;
- Kredit-modul tizimi va HEMIS platformasidan to‘liq foydalanishni ta’minlash;
- Masofaviy ta’lim (MOOC) va Blended Learning formatlarini joriy etish;
- Dual ta’limni ish beruvchilar va korxonalar bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yish;
- Ta’lim natijalarini baholashning shaffof, raqamli mexanizmlarini joriy etish;
- Professor-o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirish va xorijiy stajirovkalarni tashkil etish;
